



TARAQIYYOTGA OLIB BORUVCHI USTUVOR QADRIYATLARNI AHOLI ONGIGA SINGDIRISH MASALALARI

Nurmatjonova Mohlaroybegim Zuhridin qizi
Qo'qon Universiteti Andijon filiali FTO'ingl-kurs talabasi
nurmatjonovamohlaroybegim@gmail.com
(+998902072229)

Annotatsiya: Ushbu maqolada taraqqiyotga olib boruvchi ijtimoiy, madaniy, va ma'naviy qadriyatlarning mohiyati hamda ularni aholi ongiga singdirish darajasi bilan bog'liq. Muallif qadriyat tushunchasining nazariy asoslariga tayanib, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar shaklida ajratgan holda yoritadi. Maqolada shuningdek ustivor qadriyatlarni singdirishda oila, ta'lim tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, diniy-ma'rifiy muassalar, mahalla va fuqarolik jamiyatini roli alohida tahlil etilgan. Globallashuv sharoitida yoshlar ongini yot g'oya va qarashlardan asrash, ularda milliy g'urur, vatanparvarlik mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlatni shakllantirishning ahamiyatga egaligi yoritib berilgan. Maqolada "Yangi O'zbekiston" g'oyasi bilan ustivor qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik.

Kalit sózlar: qadriyatlar, taraqqiyot, ta'limtarbiya, globallashuv, axborot vositalarimehnatsevarlik, ijtimoiy, madaniy, umuminsoniy, jamiyat g'urur, oila, diniy-ma'rifiy muassalar, yoshlar ongi, g'oya, mahalla va fuqaro, ustivor, insonparvarlik, uzviy bog'liqlik.

Key words: values, progress, education, globalization, media, hardworking, social, cultural, society, pride, family, religious enlightenment, young minds, idea neighborhood, citizen, humanitarianism, interconnectedness.

Kirish:

Bugungi kunda har bir jamiyatning taraqqiyoti uning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarga bevosita bog'liqdir. Jamiyatni tashkil etuvchi har bir a'zo o'z qadriyatlariga asoslanib hayot kechiradi va o'zgarishga moslashadi. Millatning kelajagi, uning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy uyg'onish va axloqiy o'sishi to'g'risidagi fikrlar ko'p asrlik tarixiy tajribalarga asoslanadi. Shunday ekan, taraqqiyotning dastlabki poydevori—ma'naviy qadriyatlar bo'lib, ular jamiyatni birlashtiruvchi mehnatsevarlik adolat, halollik, va vatanparvarlik kabi muhim fazilatlar orqali kamolotga yetaklaydi. Jamiyatda ustivor qadriyatlarning shakllanishi





uchun butun mamlakat miqyosida keng ko'lamli ma'naviy ma'rifiy ishlarga ehtiyojlar bor. Aynan shu qadriyatlar insonni har tomonlama yuksaltiradi, uning xulq-atvorini fikrlash tarzini va jamiyatga bo'lgan munosabatni shakllantiradi. Shuningdek zamonaviy davrda globalizatsiya va texnologik rivojlanish jarayonlari turli madaniyat va qadriyatlarni o'zaro ta'sirda bo'lishiga olib kelmoqda. Shunday sharoitda, milliy qadriyatlarni saqlab qolish va yoshlarning o'zgaras axloqiy normalarga tayangan holda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, g'oyaviy qarama-qarshiliklar kuchaygan bir davrda milliy qadriyatlarimizni asrash va ularni yangi avlod ongiga to'g'ri yetkazish, masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Yoshlarga yot g'oyalar emas, balki ular o'zligini anglashiga tarixiy ildizlariga tayanib, Vataniga sadoqat bilan xizmat qilishiga turtki beruvchi g'oyalar va qadriyatlar singdirilishi zarur. Jumladan maktabgacha ta'limdan boshlab, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda yosh avlodga milliy va umumbashariy qadriyatlarga singdirish, ularni hayotga tadbiq etish o'rgatish zarur. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri axborot manbalaridan foydalanishni ta'minlash, ularni zararli mafkuralardan qilish muhim masalalardir. Jamiyat taraqqiyoti bevosita aholi ongining yuksalishi va umuminsoniy yuksalish va singdirish bilan chambarchas bog'liqdur. Har qanday jamiyatda taraqqiyotning asosiy omillari biri insonlarning dunyoqarashi ma'naviy-madaniy saviyasi ijtimoiy ong darajasi hisoblanadi. Insoniyat tarixida buyuk sivilizatsiyalar o'z taraqqiyotini faqat moddiy omillarga emas, balki ma'naviy qadriyatlar mustahkamligi va ularni aholi ongini singdirish-rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim tizimi ommaviy axborot vositalari va ma'daniy-ma'rifiy muassalarining roli beqiyosdir.

Asosiy qism: Ustivor qadriyatlarning mohiyati va turlari: qadriyatlar-bu jamiyat a'zolari tomonidan qadrlanadigan, e'tirof etiladigan va amal qilinadigan axloqiy, ma'naviy, estetik yoki diniy mezonlardir. Ular insonning ongida xulq-atvorida, munosabatlarida o'z aksini topadi. Qadriyatlar ikki turga bo'linadi: milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar. Milliy qadriyatlarga vatanparvarlik, o'zaro hurmat, oilaparvarlik, ota-onani e'zozlash, tilga hurmat, urf-odat va an'analariga sodiqlik. Umuminsoniy qadriyatlar halollik, adolat va bag'rikenglik. Ushbu qadriyatlar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Zero qadriyatlar shakllanmagan jamiyatda ma'naviy bo'shliq yuzaga keladi, bu esa ijtimoiy tanglik, veqarorlik, ijtimoiy ma'sulyatning yo'qolishiga olib keladi. Qadriyatlarni shakllantirishda asosiy institutlar: qadriyatlarning dastlabki shakllanishi aynan oilada boshlanadi. Ota-onaning farzandga bo'lgan munosabati oila muhitdagi ijtimoiy muomala bolaga erta yoshlikdan qadriyatlar to'g'risida tasavvur beradi. Maskur taqiqotda taraqqiyotga olib



boruvchi ustivor qadriyatlarning mohiyati, ularning shakllantirishning samarali usullari, aholining turli qatlamlari ongiga singdirish mexanizmlar va bu jarayonda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar yoritiladi. Shu bois rivojlanayotgan davlatlar milliy va ummuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etish ularni keng jamiyatchilik ongiga singdirish muhim bir masalalaridan biri bo'lmoqda. Jamiyatning barqaror rivojlanishi va taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy va siyosiy omillarga, balki ijtimoiy ong va ma'naviy darajasiga ham bog'liq. Zamonaviy jamiyatda barqaror taraqqiyotni ta'minlash uchun quyidagi ustivor qadriyatlarni ayolni ongiga singdirish zarur:

1 Ilm-fan innovatsiyalarga qiziqishni oshirish, tanqidiy va kreativ kelyapsanmi rivojlantirish, hayot davomida salom olish madaniyatini shakllantirish.

2 Huquqiy ongini oshirish va qonun ustivorligini mustahkamlash, ijtimoiy ma'suliyatni hissini shakllantirish.

3 Milliy madaniyat merosni saqlash va rivojlantirish, global dunyoda o'ziga xosligini saqlab qolish. Taraqqiyotga olib boruvchi ustivor qadriyatlarni aholi ongiga singdirish masalasida turli olimlar fikri bildirilgan. Quyida bu boradagi ayrim muhim fikrlarni keltirib o'tamiz:

1. Ijtimoiy ongini shakllantirishda ma'naviyatning roli: Ko'plab olimlar, jumladan, A. Azizxo'jayev va M. Yo'ldoshevlar ta'kidlashicha, taraqqiyotga erishishda aholi ongiga yuqori ma'naviy qadriyatlarni singdirish hal qiluvchi omildir. Ular jamiyatda adolat, halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat kabi fazilatlarini targ'ib qilish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar.

2. Qadriyatlar orqali ijtimoiy kapitalni rivojlantirish: Ijtimoiy fanlar vakillari qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy birlashuvni kuchaytirish, ishonch muhitini yaratish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun zarur vosita ekanligini aytishadi. Masalan, amerikalik sotsiolog Robert Patening fikricha, ishonch, hamkorlik va o'zaro hurmat taraqqiyotning tayanchi bo'la oladi.

3. Milliy qadriyatlar va zamonaviylik uyg'unligi: O'zbekistonlik olimlardan O. Sharipov, M. Quronov va boshqalar ta'kidlaydiki, taraqqiyotga erishishda milliy qadriyatlar zamonaviylik bilan uyg'unlashgan holda rivojlantirilishi kerak. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy yangilanishga olib keladi.

4. Ta'lim va tarbiya orqali qadriyatlarni singdirish: Pedagog olimlar fikricha, ustivor qadriyatlarni ongga singdirish jarayoni, eng avvalo, ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Ular maktabgacha ta'limdan boshlab, har bir bosqichda vatanparvarlik, insonparvarlik, mas'uliyat, bilimga intilish kabi qadriyatlarni bolalar ongiga chuqur singdirishni zarur deb biladilar.





5. Axborot vositalarining ta'siri: Zamonaviy ijtimoiy psixologlar va madaniyatshunoslar, masalan, K. Inglehart va G. Hofstede, qadriyatlar shakllanishida OAV, internet va boshqa kommunikatsiya vositalarining kuchli ta'sirini alohida qayd etadilar. Ijobiy axborot muhitini yaratish orqali ijtimoiy ongda taraqqiyotga yo'naltirilgan qadriyatlar mustahkamlanadi.

Xulosa: qilib aytganda, taraqqiyotga olib boruvchi ustuvor qadriyatlarni aholining ongiga chuqur singdirish – har tomonlama taraqqiy etgan, ma'naviy barkamol jamiyat qurishning asosiy omillaridan biridir. Bunda ta'lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, mahalla va oila instituti, davlat siyosatining targ'ibot mexanizmlari o'zaro uyg'unlikda ishlashi zarur. Ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, adolat, mas'uliyat, milliy g'urur kabi qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali jamiyatda ijtimoiy birlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash mumkin bo'ladi. Ushbu qadriyatlarning aholining ongiga bosqichma-bosqich, tizimli singdirilishi — uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlik va yuksak taraqqiyotning ishonchli kafolatidir.

Bugungi globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, g'oyaviy raqobat kuchaygan bir davrda milliy qadriyatlarimizni asrash, rivojlantirish va ularni xalq, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish dolzarb vazifaga aylangan. Har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlarda halollik, mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoyilik, o'zlikni anglash, adolat kabi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish orqali biz jamiyatda sog'lom muhit, o'zaro hurmat va birdamlikni ta'minlaymiz. Xulosa qilib aytganda, ustuvor qadriyatlarni aholi ongiga samarali singdirish orqali biz mustahkam fuqarolik jamiyati, sog'lom ijtimoiy muhit, barqaror taraqqiyot sari dadil qadam qo'yamiz. Bu esa, nafaqat bugungi kunimiz, balki kelajak avlodlar uchun ham ishonchli poydevor yaratamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Abu Nasir Farobiy -u inson ma'naviy yetukligi va ilm-fan taraqqiyotining jamiyat rivojida o'zni haqida fikr bildirgan "Baxtli jamiyat ilm va ma'rifatga asoslangan bo'lishi lozim".

2.Ibn Sino -ilm-fan va axloqiy tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlab , insonning komillikka intilishi jamiyatning taraqqiyotiga bevosita ta'sir qilishni qayd etgan

3.Alisher Navoiy -o'z asarlarida ma'rifat ,adolat va axloqiy qadryatlarning inson hayotidagi muhim orn haqida gaprib , "Ilmni taraqqiyotning asosiy omili "deb bilgan.

4. Friedrich Engels va Karl Marx -ular jamiyatning taraqqiyoti iqtisodiy omillari va ijtimoiy ongning rivojlanishiga bog'liqligini ta'kidladi.

5.Max Weber -u taraqqiyot va iqtisodiy o'sishga protestant axloqiy hamda mehnatsevarlik bilan bog'langan ,qadryatlarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini o'rgangan.